

2022



Toshkent tibbiyot
akademiyasi



O'zbekiston Respublikasi
Sog'liqni saqlash vazirligi

Abu Rayhon Beruniy ilmiy-madaniy merosining ahamiyati va uning fan taraqqiyotidagi o'rni

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

Google Scholar indexed



Toshkent tibbiyot akademiyasi

www.tma.uz

O'zbekiston
Respublikasi
Sog'liqni saqlash vazirligi

www.ssv.uz

ABU RAYHON BERUNIYNING JIGAR KASALLIKLARINI DAVOLASHDAGI MASLAXATLARINING ZAMONAVIY TALQINI

Z. A. Sayfutdinova, Z. Ch. Kurbonova

Toshkent tibbiyot akademiyasi

ANNOTATSIYA

Abu Rayxon Beruniy qalamiga mansub “Kitob-As-Saydana Fi-t-T-Tib” da dorivor o’simliklar haqida juda ko‘p ma’lumotlarni yoritgan. Bu kitobda muallifning tibbiyot sohasidagi ko‘pgina kasalliklarda, jumladan jigar kasalliklarida dorivor o’simliklardan foydalanish va boyitilgan ozuqa orqali organizmning ichki muhit doimiyligini ta’minlash uchun juda ham foydali bo‘lgan maslaxatlari o’z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: Abu Rayxon Beruniy, geliotrinli intoksikatsiya, toksik gepatit, “aminokislotali qon o‘rnini bosuvchi” eritma.

O‘z zamonasining buyuk mutafakkiri, olimi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy 973-yil 4-sentyabrda qadimgi Kot shahrida tavallud topgan. Uning nasabida “berun” so‘zi “tashqi shahar”, “Beruniy” esa “tashqi shaharda yashovchi kishi” ma’nosini bildiradi.

Abu Rayxon Beruniy ko‘plab asarlar muallifi hisoblanadi. Uning qalamiga mansub “Kitob-As-Saydana Fi-t-T-Tib” da dorivor o’simliklar haqida juda ko‘p ma’lumotlarni yoritgan. Ushbu kitob XX-asrning 30-yillarida Turkiyada topilgan. Bu kitobda muallifning tibbiyot sohasidagi ko‘pgina kasalliklarda, jumladan jigar kasalliklarida dorivor o’simliklardan foydalanish va boyitilgan ozuqa orqali organizmning ichki muhit doimiyligini ta’minlash uchun juda ham foydali bo‘lgan maslaxatlari o’z aksini topgan.

Jigar zararlanishining ko‘plab patogenetik aspektlari oxirigacha o‘rganilmagan [2]. Surunkali gepatit va jigar sirrozining sabablaridan biri virusli gepatit B va C [4]. SHu bilan birga, hozirda 180 dan ortiq gepatotoksik dori vositalari aniqlangan bo‘lib, shulardan 6 guruhi jigarni jiddiy jaroxatlaydi. SHu bilan birga narkotiklarning 50% i gepatotoksik bo‘lib, ayniqsa ayollarda bu ta’sir kuchliroq namoyon bo‘ladi. Dori vositalari gepatotsellyulyar zararlanish, hattoki jigar nekroziga sababchi bo‘lib, klinikada asosan sariqlik, xarorat oshishi, jigar fermentlarining oshishi bilan namoyon bo‘ladi [1]. Jigar

kasalliklarini o'z vaqtida aniqlash ko'plab asoratlarning oldini olishga yordam beradi [3].

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, laboratoriya sharoitda chaqirilgan geliotrinli intoksikatsiya natijasida rivojlangan o'tkir toksik gepatit sariqlik, gepatomegaliya, og'ir xolestaz, o'rtacha sitoliz rivojlanishiga, Alt, Ast ko'payishiga olib keladi. Geliotrinli gepatitida "aminokislotali qon o'rnini bosuvchi" eritma yuborilgan kalamush jigarining morfofunktional holati tezda tiklanadi. Xususan, "aminokislotali qon o'rnini bosuvchi" eritma tarkibidagi natriy suksinat hujayra membranasini barqarorlashtirib, gepatotsitlar membranasining, ayniqsa sinusoidal bo'shliqlarni tiklaydi va jigar toksik zararlanishi tufayli yo'qoltilgan funksional holatni yaxshilanishiga olib keladi. Gepatotsitlar membranasining barqarorlashishi sinusoidal va Disse bo'shliqlarida ortiqcha suyuqlikni yo'q qilish natijasida yuzaga keladi. Shunday qilib, geliotrinli gepatitda foydalaniladigan "aminokislotali qon o'rnini bosuvchi" eritma kiritilganda jigar gistoarxitektonikasining deyarli 90-95% tiklanishi kuzatiladi.

Xulosa qilib aytganda, Abu Rayxon Beruniy 10 asrdan oldin keltirib o'tgan ma'lumotlar xozirgi vaqtida milekulyar darajada o'z isbotini topmoqda.

REFERENCES

- Сайдов А.Б., Сайфутдинова З.А., Каримов Х.Я. Лекарственно-индуцированный токсический гепатит: современные взгляды // Назарий ва клиник тиббиёт, 2021. –№3. – Б. 52-58
- Kurbanova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Violations of coagulative hemostasis in patients with liver cirrhosis of the viral etiology. European science review. 2018,7-8:122-125.
- Kurbanova Z.Ch., Babadjanova Sh.A., Islamova Z.S., Musayeva N.B., Babadjanov A.S. Some features of hemorrhagic syndrome in chronic diffuse liver diseases. Indian Journal of Forensic Medicine and Toxicology. 2020;14(4), 7443-7448.
- Kurbanova Z.Ch., Babadjanova Sh.A., Korkmaz S., Babadjanov A.S., Musayeva N.B. Platelet Pathology in Patients with Chronic Diffuse Liver Diseases with Viral Etiology. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 2020,5 (24):2402-10.

CONTENTS MUNDARIJA

- 81.** Dustova, G. K. (2022). ABU RAYHON BERUNIYNING "SAYDANA" ASARINING XUSUSIYATLARI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 313-314.
- 82.** Sayfutdinova, Z. A., & Kurbonova, Z. C. (2022). ABU RAYHON BERUNIYNING JIGAR KASALLIKLARINI DAVOLASHDAGI MASLAXATLARINING ZAMONAVIY TALQINI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 315-316.
- 83.** Kurbonova, Z. C., Nuriddinova, N. F., & Tairova, G. B. (2022). ABU RAYHON BERUNIYNING TIBBIYOTGA QO'SHGAN HISSASINI O'RGANISH. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 317-319.
- 84.** Tairova, G. B., Kurbonova, Z. C., & Nuriddinova, N. F. (2022). ABU RAYHON BERUNIYNING JIGAR KASALLIKLARI TO'G'RISIDAGI FIKRLARINI TADQIQ QILISH. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 320-322.
- 85.** Ne'matova, M., & Aslanova, M. D. (2022). ABU RAYHON BERUNIY HIKMATLARINING TIBBIYOTDAGI O'RNI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 323-326.
- 86.** Nishonov, A. A. (2022). ABU RAYHON BERUNIYNING TIBBIYOTGA QO'SHGAN HISSASI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 327-328.
- 87.** Rahmanov, T. O., & Muxammadiyeva, M. M. (2022). ABU RAYXON BERUNIYNING XOZIRGI DAVRGACHA TUTGAN O'RNI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 329-330.
- 88.** Sherqo'ziyeva, G. F., Boysariyeva, M., & O'rolova, O. (2022). BERUNIYNING TIBBIYOTDAGI ZAMONDOSHI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 331-334.
- 89.** Sobirjonov, A. Z. (2022). ABU RAYHON BERUNIYNING «SAYDANA» ASARINI FARATSEVTIKADA TUTGAN O'RNI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 335-339.
- 90.** Farhodjonov, O. U. (2022). XORAZMLIK BERUNIY VA TIBBIYOT. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 340-347.
- 91.** Xudaykulova, G. K., Abdurashitova, S. A., & Muyassarova, M. M. (2022). ABU RAYHON MUHAMMAD IBN AHMAD BERUNIY O'RTA ASRLARNING BUYUK QOMUSIY OLIMI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 348-350.